

15. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 187-191.
16. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
17. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
18. <https://www.unesco.org/en>
19. <https://www.citiesoflit.com/>
20. <https://Huqand.adab.uz>

XORAZMDA ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

G'ayipov Dilshod Qadambayevich,
 filologiya fanlari doktori, professor
 Urganch davlat universiteti
 Filologiya va san'at fakulteti dekani
dilshod_gayipov@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmda adabiy tuzimni rivojlantirish istiqbollari xususida ba'zi fikr-mulohazalar, takliflar ilgari suriladi. Jumladan, ulug' alloma Zamaxshariy Najmiddin Kubro, Rabg'uziy, davlat arbobi va tarixnavis Abulg'ozzi Bahodirxon majmualarini barpo etish haqida fikr yuritiladi. Munis, Ogahiy maqbarasini obod etishning yoshlar ma'naviyatini oshirishdagi o'rni ochib beriladi. Sayid Mohiro'yi jahon majmuasi, Avaz O'tar uy-muzeyi, Omon Matjon asos solgan bog' adabiy turizm maskanlari sifatida e'tirof etishga loyiqligi dalillanadi. Xorazmda ham "Adiblar xiyoboni" bunyod etishning ma'naviy asoslari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Adabiy turizm, Xorazm, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Rabg'uziy, Abulg'ozzi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Feruz, Avaz O'tar, Omon Matjon, majmua, uy-muzey, bog', Adiblar xiyoboni, ma'naviyat.

Kirish: Xorazm azaldan madaniyat, san'at, adabiyot markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Vohada doimiy ravishda adabiy muhit taraqqiy qilgan. Bu ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarning soni va sifatida ham o'z aksini topgan. Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodini tadqiq qilish ishlari ham keng ko'lamli tarzda olib borilmoqda. Biroq bu ulug' ijodkorlar yashagan davr, muhit, asarlarining yaratilish jarayoni tasvir etilgan ekspozitsiyalar bilan qiziquvchilarni tanishtirish, qisqa qilib aytganda, adabiy turizmni rivojlantirish borasida hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Adabiy turizm turizmning o'ziga xos, kam taraqqiy etgan turlaridan. Zero Prezidentimiz yangi turizm yo'nalishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish [1,173]ni Yangi O'zbekistonni barpo etishda amalga oshirish lozim bo'lgan strategik vazifa sifatida belgilab bergan edilar.

Asosiy qism: Adabiy turizm istilohi ham davrimiz uchun yangilikdir. Nafaqat Xorazmda, balki respublikamizning ko'pchilik hududlarida adabiy turizmni rivojlantirish yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi. Adabiy turizm davlatga, jamiyatga iqtisodiy foyda keltirish bilan birga ma'naviy naf ham keltiradi. Uning iqtisodiy foydasidan ko'ra ma'naviy foydasi ko'p va samaralidir. Biz Xorazmda, buyuk alloma Zamaxshariy tug'ilgan maskanda turizm masalasiga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim. Ma'lumki, Mahmud ibni Umar ibn Ahmad Zamaxshariy zamonasining benazir allomasi, shoir, xattot, Arab va Ajam olimlarining ustodi sifatida mashhurdir. U Xorazm, Buxoro, Isfahon, Bag'dod va boshqa joylarda yashab tahsil oladi, ikki marta Makkaga safar qiladi, turli ilmlarni agallaydi, arab, fors va boshqa sharq tillarini o'rganadi.

Az-Zamaxshariy saljuqiylar va anushteginlar saltanati yillarida yashab ijod etdi. U yaratgan ellikdan ziyod asarlar adabiyotshunoslik, til bilimi, etnografiya, tarix, geografiya, odob-axloq va boshqa sohalarga bag'ishlangan, Qur'oni Karim tafsiriga atab kitoblar yaratgan. [2,8] Ayniqsa, uning arab tili grammatikasiga oid xizmatlari butun arab dunyosida e'tirof etilgan. Ana shularni e'tiborga olib, Zamaxshariy tug'ilgan maskanda yodgorlik majmuasi bunyod etish lozim. U yerda olimga haykal o'rnatish, asarlari faksimelyesidan namunalar qo'yish, nashr etilgan kitoblaridan fond tashkil etish, Zamaxshariy yashagan davrni eslatuvchi ekspozitsiyalar yaratish arab sayyohlarni, jumladan, yurtimiz ilm ahlini o'ziga jalb etishi shubhasizdir. Bu yil Zamaxshariy tavalludiga 950 yil to'ladi. Zamaxshariy nomidagi majmua qurilishi bu yil boshlansa, allomaning yubiley sanasiga munosib sovg'a bo'lar edi.

Adabiy turizm istiqbollari rivojida ulug' mutasavvuf Najmiddin Kubroga bo'lgan e'tiborning alohida o'rni bor. Bu buyuk shayx 1145-1221-yillarda yashab ijod etgan. Joriy yil shoir tavalludiga 880 yil to'ladi. Ma'lumki, Najmiddin Kubro Xivada Soyot qishlog'ida tug'ilgan. Xorazmshohlar davlatining poytaxti Ko'hna Urganchda halok bo'lgan. U tug'ilgan qishloqda validasi Bibi Hojar onaning, xolalarining qabrlari ham bor. Aynan mana shu qishloqda Najmiddin Kubro onasi va xolalari maqbaralari ta'mirlansa, ulug' shayxning hoki keltirilib, maqbara-majmua bunyod etilsa, g'oyatda savob ish bo'lardi va bu faoliyat adabiy turizm istiqbolida munosib o'rin egallardi.

O'zbek mumtoz adabiyotida Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy badiiy nasrning boshlovchilaridan, iste'dodli shoir sifatida e'tirof etiladi. U XIII asr oxiri - XIV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan. Rabg'uziy Xorazmning Raboti o'guz qishlog'ida tug'ilganligi manbalarda qayd etiladi. Bu qishloq hozirda Xorazm viloyati Bog'ot tumanida joylashgan. Bugungi kunda ana shu tumanda Qal'ajiq qal'a sayyohlik majmuasi bor. U yerga ko'plab chet ellik va mahalliy sayyohlar tashrif buyuradi. Agar tumanning Raboti o'guz qishlog'ida Rabg'uziy nomidagi majmua bunyod etilsa, bu majmua tumanning sayyohlik tizimidagi yana bir diqqatga sazavor maskanga aylanar edi.

Yangi Urganch shahrining asoschisi, mashhur davlat arbobi, tarixnavis Abulg'oz Bahodirxon nomida ham alohida majmua-bog' tashkil etish adabiy turizm istiqbolidagi masalalardan hisoblanadi. Taniqli olim B.Ahmedov: "Abulg'ozixon oliy nasab va toj-u taxt sohibi bo'lgan. U qariyb yigirma yil (1644-1664) Xorazmni idora qildi, lekin tarixda oliy hukmdor sifatida emas, balki yirik olim sifatida qoldi. Ilmning xosiyatidan shunday bo'ldi u", [3,3] deb yozgan edi. Bugungi kunda Xorazm viloyatining markazi Urganch shahrida Abulg'oz Bahodirxon nomidagi bog'-majmua bunyod qilish, bog' majmuada adib asarlaridagi voqealar gavdalantirilgan ekspozitsiyalar yaratish, "Yosh tarixchilar", "Yosh adabiyotchilar" to'garaklarini majmua qoshida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu xayrli ish ham yosh avlod ma'naviyati yuksalishida katta o'rin tutadi.

O'zbek adabiyotini Shermuhammad Munis, Ogahiy ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Keyingi yillarda Ogahiy ijodi tadqiqi, asarlarini chop etish borasida katta ishlar qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Ogahiy ijod maktabi tashkil etildi. Shoir uy-muzeyi ta'mirlanib, fayzli maskanga aylandi. Ana shu xayrli ishlarning davomi sifatida Xiva tumanining Qiyot qishlog'idagi Munis va Ogahiy maqbaralarini qayta rekonstruksiya qilish va katta majmuaga aylantirish lozim. Agar bu ishlar, amalga oshirilsa, Xorazmda adabiy turizm rivojidagi beqiyos ishlardan bo'lur edi. Munis va Ogahiy maqbaralarini hali xorazmlik yoshlarning ham ko'pchiligi ko'rgan emas. Maqbaralar ta'mirlanib, katta majmuaga aylantirilsa, respublikamiz yoshlari, adabiyot ixlosmandlari uchun ham ziyoratgoh maskanga aylanar edi.

Xivada Sayyid Mohiro'yi jahon maqbarasi bor. Ulug' davlat arbobi, shoir Muhammad Rahimxon Soniy Feruz, ana shu maqbaraga dafn etilgan. Muhammad Rahimxon soniy Feruz asli sayidlar avlodidan. [4,112] Bugungi kunda Sayid Mohiro'yi jahon maqbarasi katta majmua ko'rinishida bo'lib, u yerda Xiva xonlaridan ba'zilari, jumladan, Feruz, davlat arboblari Ibrohimxo'ja, Islomxo'ja, shahzoda Temurg'oz to'ralarning qabrlari joylashgan. Afsuski, majmua ta'mirtalab. Keyingi yillarda Xiva shahrida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan

ulkan bunyodkorliklar bo'layotganini e'tirof etgan holda, Sayid Mohiro'yi jahon majmuasi ham ta'mirlanishini, adabiy turizm maskanlaridan biriga aylantirilishini istagan bo'lar edik. Yana ana shu majmua bilan bir ko'chada mashhur shoir, ma'rifatparvar Avaz O'tar uy-muzeyi ham joylashgan. Bu uy-muzey, qayta rekonstruksiya qilinsa, u yerga ko'plab eksponatlar qo'yilsa, muzeyda shoir she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlar yangrab tursa, Avazning ma'rifatparvarlik ruhida she'rlari ifodali o'qilgan holda tashrif buyuruvchilarga taqdim etilsa, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda ham bu uy-muzeyning ahamiyati ortgan bo'lar edi.

Xorazmdagi adabiy turizm manzilgohlari ro'yxatiga O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon tomonidan asos solingan "Yoshlik" bog'ini ham kiritish lozim. Bog'da shoir nomi bilan ataluvchi muzey ham tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Zero shoir qoldirgan boy adabiy meros shunga munosibdir.

Biz poytaxtimizdagi "Adiblar xiyoboni"ga borib, u yerdan ma'naviy quvvat olamiz. Ana shunday xiyobonni Urganch shahrida ham bunyod etilishini, bu majmua turizm maskaniga aylantirilishini ham mutasaddilarga taklif sifatida bergan bo'lar edik.

Xullasa: Keyingi yillarda turizmni rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina Xiva shahriga turistlar oqimi keskin oshdi. Biz turizmning turli tarmoqlari qatori adabiy turizmni ham jadal rivojlantirishimiz zarur. Adabiy turizm nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy jihatdan ham ulkan sarmoyadir. Zero ma'naviy taraqqiyot iqtisodiy yuksalishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 173-bet.
2. Abdullayev H. Mumtoz xorazmiylar muxtasar bitiklarda. Toshkent, 2011. 8-bet.
3. Abulg'oziy. Shajarayi turk// Ahmedov B. Abulg'ozixon va uning "Shajarayi turk" asari haqida ikki og'iz so'z. Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1992. 3-bet.
4. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Feruz - shoh va shoir qismati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 112-bet.
5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(1), 215-219.

NOMODDIY MADANIY MEROS

VA BAXSHICHILIK SAN'ATI

Jabbor Eshonqul,

filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori

Anotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz hududidagi moddiy va nomoddiy meros, ularning bugungi kundagi ahamiyati va milliy qadriyatlarning xalq o'zligini, asriy an'analarini ulug'lashdagi o'rni xususida so'z boradi. Shuningdek, madaniy meros, an'ana va va ijrochilik xususida ham fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Baxshichilik san'ati, unung millat va elatlardagi nomlanish farqlari to'g'risida ayrim mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: madaniy meros, baxshichilik, an'ana, folklor, epik ijod mahsuli, badiiy obidalar, xalq dostonlari.

Kirish: So'nggi yillarda mamlakatimizda Nomoddiy madaniy merosga juda katta e'tibor berilmoqda. Qabul qilinayotgan qarorlar, farmonlar milliy madaniyat, folklor san'ati, nomoddiy madaniy merosni asrab avaylashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-